



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI**  
**O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**  
**O‘ZBEK SHEVASHUNOSLIGI MARKAZI**  
**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK**  
**TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT**  
**TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA**  
**OSHIRISH MARKAZI**  
**SAMARQAND VILOYATI HUDUDIY BO‘LINMASI**

**“ONA TILI MASH’ALASINI BALAND**  
**KO‘TARGAN ZOT”**

Professor Abdiyev Murodqosim Bolbekovich tavalludining  
60 yilligiga bag‘ishlanadi.

**“BOOKMANY PRINT”**  
**TOSHKENT – 2023**

**UO‘K: 494.375**

**KBK: 81.63**

**O – 56**

Ona tili mash’alasini baland ko‘targan zot [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 270 b.

Mazkur to‘plam professor Abdiyev Murodqosim Bolbekovich tavalludining 60 yilligi munosabati bilan tayyorlandi. To‘plamga kiritilgan maqolalarda mualliflarning tilshunos olim M.Abdiyev haqidagi xotiralari, samimiy dil so‘zlari ifodalangan.

**Mas’ul muharrir:**

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

**Tahrir hay’ati:**

I.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O.Jamoldinova, pedagogika fanlari doktori, professor

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori

M.Umirzoqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Rahimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

S.Ahmedov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**ISBN 978-9910-9899-8-8**

**© Davlat tilida ish yuritish asoslarini  
o‘qitish va malaka oshirish markazi  
© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

## ILMNI SAODAT DEB BILGAN OLIM

**Mehri Abuzalova,**

Buxoro davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

O‘zbek tilshunosligi zahmatkashlaridan biri, butun umrini fanimiz taraqqiyoti va barkamol avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan taniqli olim, filologiya fanlari doktori, professor Abdiyev Murodqosim Bolbekovich serqirra ilmiy-ijodiy hayot yo‘lini bosib o‘tayotgan fanimiz fidoyilaridan sanaladilar.

Sohalarning taraqqiy etishi va ishlab chiqarish rivojlanishining jadallashuvi, jahon mamlakatlarida ro‘y berayotgan taraqqiyotning globallashuv va integrallashuv jarayonlari kurrayi zaminimizdagi mavjud tillarning o‘zaro intensiv ta‘sirida ekanligi tillar sathini kengaytiradi va uning terminologik lug‘at boyligining muttasil o‘shiga asosiy omil bo‘ladi. Ma‘lumki, har bir milliy tilda o‘ziga xos terminologik tizimlar mavjud. Terminologik tizimlar yagona lisoniy tizim bilan birgalikda uning umumiy qonuniyatlari asosida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Hozirda tilshunos mutaxassislar tomonidan terminologik tizimlar leksikasi, ularning shakllanishi, rivoji va taraqqiy etishi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ustoz Murodqosim Abdiyevni shunday tadqiqotlarga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan, tilimiz ravnaqi uchun o‘zining munosib xizmatini ko‘rsatib kelayotgan olim sifatida e‘tirof etish joiz sanaladi.

El bilgan taniqli Ustozimiz Hamid G‘ulomovich Ne‘matov Murodqosim Bolbekovich haqida doimo iliq fikrlar bildirar edilar. Har gal azim shahar Samarqandga tashrif buyurganlarida yaxshi xotiralar bilan qaytardilar, bu zamindagi ilm ahli va til ilmi, turli yo‘nalishlarda olib borilayotgan faoliyat haqida jo‘shib gapirardilar. Taqdir inoyati bilan Samarqandda ilmiy ishinni himoya qilish jarayonida bu yerdagi ustoz tilshunoslar bilan tanishdim, Hamid Ne‘matov aytganlaricha bor ekan. Men mana shunday mo‘tabar zaminda ezgulikni, yaxshilikni, muloyimlikni kasb qilgan olimlar bilan ko‘plab suhbatlarda bo‘lishga erishdim. Jumladan, tabiatan kamsuqum, samimiy, muloyim, ahli olimlar taniydigan yetuk ilm egasi Abdiyev domlani ham himoya jarayonlarida ko‘rdim va tanib oldim.

Serqirra olim maqolalarida miliy tilimiz ravnaqi haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan: “Jumladan turkiy tillar ichida o‘ziga xos mavqeyiga ega bo‘lgan ona tilimiz taqdiri tarix zarvaraqlarida bitilgan

unutilmas olamshumul voqealarning ayanchli asoratlari va sezilarli ta'sirining ma'lum bir holatlarini o'zida mujassam etgan mukammal til hisoblanadi. Eronliklar, yunonlar, arablar, mo'g'ullar va ruslar bosqinining oqibatida ham ma'naviy, ham iqtisodiy tomondan yo'qotishlar bo'ldi. Mustaqillikdan so'ng ona tilimiz bilan birga uning ichki qatlami ham rivojlandi. Bu rivojlanishlarda tilshunos ustoz professorlarning yillar davomidagi izlanishlari, xizmatlari singgan", – deya ta'kidlaydilar.

Benazir tilshunos bugungi kunda tilshunosligimizning terminologiya sathini yanada samarali rivojlantirish, o'zbek tili lisoniy tizimini dunyoga tanitish uchun tinimsiz harakat qilmoqdalar. Ustozga ilmiy tadqiqotlar olib borish yo'lida zafarlar va muvaffaqiyatlar tilab qolamiz hamda 60 yillik yubileyengiz muborak bo'lsin, deymiz.

## **YETUK OLIM, MAHORATLI RAHBAR**

**Bibish Jo'rayeva,**

Davlat tilida ish yuritish asoslarini  
o'qitish va malaka oshirish markazi  
Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi rahbari,  
filologiya fanlari doktori, professor

Rim, Afina, Bobil bilan tengdosh bo'lgan dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri Samarqand nafaqat o'zining osori atiqalari, tarixiy qadamjolari, ko'zni yashnatuvchi binolari bilan, balki ulkan badiiy va ilmiy meros yaratgan farzandlari bilan ham ma'lum-u mashhurdir.

Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy kabi yuzlab olimlar Samarqandning nomini mangulikka daxldorlik etgan bo'lsa; Vohid Abdullayev, Ulug' Tursunov, Boturxon Valixo'jayev, Rahmatullo Qo'ng'urov, Bozorboy O'rinboyev kabi olimlar yaratgan ilmiy maktablarga mansub keyingi avlod vakillari bugungi kunda Samardand davlat universitetida o'ziga xos ilmiy muhit yaratishganki, bu ilmiy muhit bilan butun respublika olimlari birdek hisoblashadi, kerakli yo'nalishlar bo'yicha ulardan o'rganadi, foydalanadi.

Shu ma'noda soha leksikasi bo'yicha respublikada ilmiy ish olib boruvchi hech bir tadqiqotchi yo'qki, Samarqand tilshunoslik maktabida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Abdiyev Murodqosim Bolibekovichning dissertatsiyalariga murojaat qilmasa, undan iqtibos olmasa.

## MUNDARIJA

TALABCHAN RAHBAR	
<b>Inomjon Azimov</b> .....	<b>3</b>
OLIMNING OYDIN YO‘LI (Prof. Dr. Murodqosim Abdiyev bilan do‘stligimiz va kasbdoshligimiz hikoyasi)	
<b>Jo‘liboy Eltazarov</b> .....	<b>4</b>
JONKUYAR USTOZ	
<b>Odinaxon Jamoldinova</b> .....	<b>12</b>
ILMGA BAXSHIDA UMR SOHIBI	
<b>Muslihiddin Muhiddinov</b> .....	<b>13</b>
PROFESSOR MURODQOSIM ABDIYEV HAQIDA IKKI OG‘IZ SO‘Z	
<b>Ibodulla Mirzayev</b> .....	<b>15</b>
ILMGA BAXSHIDA UMR SOHIBI	
<b>Ravshanxo‘ja Rasulov</b> .....	<b>16</b>
HUNARCHILARNING SO‘Z TAFTISHCHISI	
<b>Samixon Turkistoniy</b> .....	<b>17</b>
SAMARALI HAYOT VA IJOD SOHIBI	
<b>Mamayunus Pardayev</b> .....	<b>20</b>
XAYRLI AMALLAR YO‘LIDAGI INSON	
<b>Suyun Karimov</b> .....	<b>24</b>
FIDOYI OLIM, KAMTARIN INSON	
<b>Alijon Mamajonov, Sharifa Iskandarova</b> .....	<b>25</b>
TERAK FIKRLOVCHI RAHBAR. SAMIMIY INSON	
<b>Azizjon Eminov</b> .....	<b>28</b>
SAMARQANDNING SERQIRRA SO‘ZSHUNOSI	
<b>Siddiq Mo‘min</b> .....	<b>29</b>
БЕЛГИЛИ АЛЫМ, ТЭЖИРИЙБЕЛИ УСТАЗ	
<b>Шамсиддин Абдиназимов</b> .....	<b>31</b>
ONA TILI MASH‘ALASINI BALAND KO‘TARGAN ZOT	
<b>Abulhay Sobirov</b> .....	<b>33</b>

MURODQOSIM ABDIYEV – 60 YOSHDA <b>Shohida Shahobiddinova</b> .....	38
FIKRLASH ZAVQINI TUYGAN OLIM <b>Muhammadxon Hakimov</b> .....	39
SAMARQAND TILSHUNOSLIK MAKTABINING MUNOSIB DAVOMCHISI <b>Muhabbat Kurbanova, Surayyo Soatova</b> .....	41
SOHAVIY LEKSIKANING ZUKKO VA FIDOYI TADQIQOTCHISI <b>Uluqov Nosirjon</b> .....	43
KOSHG‘ARIY IZDOSHI <b>Huriniso Usmonova, Nozima Qozoqova</b> .....	46
SOHA LEKSIKASINING SOHIR BILIMDONI <b>Zulxumor Xolmanova</b> .....	48
INTILGANGA TOLE YOR <b>Shavkat Hasanov</b> .....	52
DOMLALIK VA OLIMLIK SHON-SHUHRATIGA BURKANGAN INSON <b>Xo‘jamurod Jabborov</b> .....	53
ULUG‘ MAKTABNING ZABARDAST VAKILI <b>Azamat Pardayev</b> .....	56
ILMNI SAODAT DEB BILGAN OLIM <b>Mehri Abuzalova</b> .....	59
YETUK OLIM, MAHORATLI RAHBAR <b>Bibish Jo‘rayeva</b> .....	60
EHTIROMGA LOYIQ ATOQLI OLIM <b>Saodat Muhamedova</b> .....	62
ZAHMATKASH TILSHUNOS – OLIM, QALBI POK INSON <b>Xurshidjon Xayrullayev</b> .....	65
MURODQOSIM ABDIYEV VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI <b>Dilbar O‘rinboyeva</b> .....	66